

20\_\_-yil \_\_-\_\_

\_\_\_\_\_ sh.

## Bank omonat shartnomasi

№

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bank nomidan (keyingi o‘rinlarda – Bank), 20\_\_-yil “\_\_\_\_\_” dagi \_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Xalq bankining \_\_\_\_\_ bank xizmatlari markazi mas’ul xodimi \_\_\_\_\_ bir tomondan va ikkinchi tomondan fuqaro \_\_\_\_\_ (keyingi o‘rinlarda – Omonatchi) ushbu omonat shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. Omonatchi \_\_\_\_\_ valyutadagi \_\_\_\_\_ miqdoridagi pul mablag‘larini \_\_\_\_\_ (milliy) \_\_\_\_\_ (summa raqamda va so‘z bilan)

\_\_\_\_\_ depozit hisobvarag‘iga joylashtirish, Omonatni \_\_\_\_\_ (muddatli)

to‘ldirish (qo‘shimcha badal) imkoniyati bilan beradi, Bank esa qabul qilish, Omonat shartnomasida (keyingi o‘rinlarda – Omonat yoki Shartnoma) ko‘rsatilgan shartlarda va tartibda Omonatning ko‘rsatilgan summasini, qo‘shimcha badallarni, shuningdek hisoblangan foizlarni qaytarish majburiyatini oladi.

### 2. Omonat shartlari

2.1. Omonat summasini hisobga olish uchun Omonatchiga 20206 \_\_\_\_\_ “muddatli” hisobvarag‘i ochiladi. Hisobvaraqlar Omonatchi Bankka kelganida, Omonatchining arizasi asosida, u O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatganida ochiladi.

2.2. Omonat shartlari:

Omonat turi – muddatli;

Foiz stavkasi yillik – 16 foiz;

Omonat muddati – 12 oy;

Minimal ochilish summasi – 10 000 000 (o‘n million) so‘m;

Omonatning eng ko‘p summasi – cheklanmagan ;

Qo‘shimcha badal kirim qilish – mumkin;

Qisman yechib olish (asosiy summani) – mumkin emas;

Kapitallashtirish – mavjud emas;

Prolongatsiya – mavjud emas;

Foizlarni to‘lash tartibi – foizlar omonat mablag‘i kirim qilingan kunida oldindan to‘lab beriladi. Bunda, Omonatchi omonatni rasmiylashtirgan kunda unga yillik foizlar hisoblanadi.

Muddatdan oldin yopish – mavjud;

Omonatga mablag‘larni kirim qilish shakli – naqd yoki naqdsiz;

Omonat summasining muddatidan oldin qaytarilishida foiz hisoblash – omonat mablag‘lari saqlanish muddatidan oldin olingan hollarda, to‘lab berilgan foizlar omonatning asosiy summasidan yechib olinadi.

2.3. “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan. (ro‘yxat raqami 3460, 29.09.2023-y.) Omonat bo‘yicha foizlar har kuni hisoblanadi. Bunda, bir yildagi kunlarning hisobiy soni 365 kun deb qabul qilinadi.

2.4. Omonat summasiga foizlar omonat mablag‘i bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra omonatchining hisobvarag‘idan o‘chirilgan kundan oldingi kungacha bo‘lgan davrga hisoblanadi. Omonatchining hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag‘laridan foydalana olmagan davr uchun foizlar yozilmaydi.

2.5. Agar omonat muddati tugashi munosabati bilan qaytarish kuni dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan yoki qo‘shimcha dam olish) kunlariga to‘g‘ri kelsa, omonatni berish dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan yoki qo‘shimcha dam olish) kunlaridan keyingi birinchi ish (bank) kunida amalga oshiriladi.

2.6. Omonatni berish, u bo‘yicha foizlarni to‘lash, shuningdek Omonatchining yoki uning qonuniy vakilining ushbu Omonat bo‘yicha barcha buyurtmalarini bajarish Bank tomonidan shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganda amalga oshiriladi.

2.7. Ushbu hisobvaraq bo‘yicha omonat mablag‘lariga foizlarni hisoblash, ushbu omonat turi qoidasidagi shartlar asosida amalga oshiriladi. Omonat summasiga foizlar “talab qilib olinguncha” omonati shart va qoidalarda ko‘rsatilgan muddatda to‘lanadi, bu muddatda talab qilib olinmaganda, foizlar yoziladigan omonat summasiga qo‘shilib boriladi. Omonatga topshirilgan mablag‘ qo‘yilgan kunning o‘zida to‘liq yoki qisman qaytarib berilsa, foizlarni hisoblashda omonat berilgan kun to‘liq va qisman qaytarilgan omonat qismi hisobga olinmaydi.

### **3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

#### **3.1. Bankning huquqlari:**

“Omonatchi”ning hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘i o‘zgarganda (kirim va chiqim amaliyotlari bo‘lganda) omonatchiga omonat qoldig‘i to‘g‘risida uyali aloqa telefoniga “SMS-xabar” xizmati orqali xabardor qilish uchun, bank omonatchining uyali aloqa telefoni raqamini, zaruriy hollarda uy telefon raqamini so‘rab olish;

“Omonatchi” yoki uning qonuniy vakillaridan hisobvaraq ochish hamda amaliyotlarni bajarishda shaxsini aniqlash uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatilishini talab etish hamda uning nusxasini olish (zaruriy hollarda qonunda ko‘zda tutilgan boshqa qo‘shimcha hujjatlarni talab qilinishi mumkin);

“Bank” “Omonatchi” yoki uning vakillari topshirig‘iga binoan bankning omonat hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘lari bilan bank operatsiyalari bo‘yicha amalga oshirilgan xizmatlar uchun taraflarning qo‘shimcha kelishuviga muvofiq bank Tarifiga asosan vositachilik haqi undirish;

“Omonatchi” yoki qonuniy vakillari tomonidan omonat muddati tugagandan so‘ng, omonat mablag‘larini qaytarib berishni talab etmagan yoki boshqa omonat turiga rasmiylashtirilmagan hollarda, omonat mablag‘lari summasiga omonat qaytarilgan kunga qadar “talab qilib olinguncha” omonat turi foiz miqdorida foizlar hisoblab borish (agar omonat shartnomasida boshqa shartlar belgilangan bo‘lmasa);

Omonat hisobvarag‘iga pul kiritilish sanasi [date\_open] kuni hisoblanadi, omonatni qaytarish sanasi [close\_date] kuni hisoblanadi. Saqlanish muddati tugaganidan keyin omonatchi ushbu hisobvaraqqni yopmasa, mazkur hisobvaraqqa foizlar hisoblanmaydi;

Vakolatli davlat organlarining ijro hujjatlari kelib tushgan taqdirda, Omonatchining e‘tirozlaridan qat‘i nazar, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko‘rish (pul mablag‘larini xatlash, pul mablag‘larini akseptsiz hisobdan chiqarish, hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish va boshqalar);

Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar bo‘yicha 1 yil davomida, jamg‘arma va muddatli omonatlarning muddati tugagandan keyin 1 yil davomida foizlar hisoblanishidan tashqari hech qanday amaliyotlar amalga oshirilmagan omonatlar bo‘yicha “Bank” omonat hisobvarag‘i chiqim amaliyotiga taqiq qo‘yish;

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Bank Omonatchidan Omonatga

qo'yuvchini identifikatsiya qilish imkonini beradigan va hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshiriladigan amaliyotlarning qonuniyligini tasdiqlaydigan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hisobvaraqlar bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib turish yoki ularni bajarishni rad etish;

Omonatchi yoki uning amaliyoti sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, amaliyotni o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, amaliyot miqdorini chegaralash, amaliyotni cheklash (rad etish) yoki amalga oshirayotgan amaliyotlar "Omonatchi"ning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va "Omonatchi" bilan shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish;

Amalga oshirilishi ko'zda tutilgan operatsiya oqibatida bankka nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llanish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda bank "Omonatchi"ga hisobvaraqa ochishni va amaliyotni amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.

### **3.2. Bankning majburiyatlari:**

Bank, O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-1031-sonli Qonunida o'rnatilgan tartibda Omonatchining bankdagi omonatini himoya qilinishini kafolatlaydi;

Bank "Omonatchi"ni omonat turi, shart va qoidalari bilan tanishtiradi;

ushbu shartnoma imzolangan kuni "Omonatchi"ga omonat mablag'larini saqlash uchun hisobvaraqa ochadi va ushbu hisobvaraqda hisobini yuritadi;

Shartnoma shartlariga muvofiq foizlar to'lash;

Omonat mablag'larining but saqlanishi va daxlsizligini ta'minlash. Omonat mablag'larini xatlash yoki hisobvaraqlar bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib qo'yish faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin;

bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash, Omonatchi va Omonat to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqat amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda taqdim etish.

### **3.3. Omonatchining majburiyatlari quyidagilardan iborat:**

Omonat shartlari bilan tanishish, omonat bo'yicha to'ldirilgan hujjatlarni o'z imzosi bilan tasdiqlash;

ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilish;

hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vakolatli organlarning normativ hujjatlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirish;

Bankning talabiga ko'ra ushbu shartnomaga muvofiq so'raladigan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish;

Hisobvaraqlarga noto'g'ri o'tkazilgan va/yoki hisobdan chiqarilgan mablag'lar aniqlangan taqdirda, bu haqda darhol Bankka xabar berish;

o'z manzili, telefon raqami, shu jumladan mobil telefoni, familiyasi, ismi yoki sharifining o'zgarganligi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat almashtirilganligi to'g'risida Bankni yozma ravishda xabardor qilish.

### **3.4. Omonatchining huquqlari quyidagilardan iborat:**

pul mablag'larini omonat hisobvaraqlarida saqlash uchun "Bank" tomonidan jismoniy shaxslarga taklif etilgan omonat turlarining qoidalari bilan tanishib chiqish;

“Bank”da xohlagan sonda omonat hisobvaraqlari ochish;

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatni shaxsan tasarruf etish yoki mazkur huquqni notarial tasdiqlangan ishonchnoma orqali uchinchi shaxslarga taqdim etish;

Bank omonatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni og‘zaki, yozma va uyali aloqa telefonidan “SMS-xabar” shaklda yoki Bankning internetdagi [www.xb.uz](http://www.xb.uz) veb-sayti orqali hamda “Aloqa markazi” (Call-centre) orqali olish;

Omonatning saqlash muddati tugaganda, ushbu shartnomada ko‘rsatilgan shartlarga muvofiq, omonat hisobvaraqdan pul mablag‘larini unga hisoblangan foizlar bilan birga to‘liq hajmda olish;

Omonat bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalar haqida SMS-xabarnoma yoki mobil ilova orqali ma‘lumot olish;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatchiga berilgan boshqa imkoniyatlardan foydalanish.

#### **4. Tomonlarning javobgarligi**

4.1. Taraflar ushbu shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

4.2. “Omonatchi” omonatga doir qonun hujjatlari, ushbu shartnoma va omonat turi qoidasiga rioya etmasdan yoki qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘yishi oqibatida bevosita o‘zining omonat mablag‘lariga yetkazilgan zarar uchun “Bank” javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

4.3. Omonatchi hisobvaraqqa kirim qilingan mablag‘larning qonuniyligiga shaxsan javobgardir.

4.4. Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar (fors-major) va shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qarori asosida majburiyatlar bajarilishi kechiktirilganligi (moratoriy) hamda tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yoki boshqa hujjatning amal qilishi to‘xtatib turilganligi munosabati bilan tomonlar shartnoma shartlari bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarni bajarishdan ozod bo‘ladilar. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo‘lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi lozim.

#### **5. Korrupsiyaga qarshi shartlar**

5.1. Mazkur Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari biror noqonuniy ustunlikka yoki boshqa imtiyozlarga erishish uchun biror bir shaxsga, uning harakatlari yoki qaroriga ta‘sir o‘tkazish maqsadida, bevosita yoki bilvosita biror bir pul mablag‘lari yoki qimmatliklarni to‘lamaydi, to‘lashni taklif etmaydi va bunday to‘lovni amalga oshirishga ruxsat bermaydi.

5.2. Ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari amaldagi qonunchilik bilan pora berish/pora olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish kabi tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek amaldagi qonunchilikka doir xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

5.3. Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini rag‘batlantirishdan, shu jumladan xodimlarga pul mablag‘lari, sovg‘alar berish va ular uchun tekin ishlar (xizmatlar)ni bajarish va boshqa yo‘llar orqali ularni ma‘lum bir tobelikka olib kelishi mumkin bo‘lgan va rag‘batlantiruvchi Mazkur hujjat elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar to‘g‘riligini tekshirish uchun mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling. [www.xb.uz](http://www.xb.uz) veb-saytiga o‘ting va elektron hujjat to‘g‘risida ma‘lumotlarni [oling.tomonning](http://oling.tomonning) foydasiga xodimlar biror bir xatti-harakatlarni bajarishlarini ta‘minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadilar.

5.4. Tomonlarda har qanday korrupsiyaga qarshi shartlar buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan shubha tug'ilganda, tegishli tomon yozma ravishda yoki aloqa kanallari orqali og'zaki tarzda boshqa tomonni xabardor qiladi. Shuningdek, ushbu tomondan ma'lum muddat ichida tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor etishini talab qilishi shart. Tomonning bu talabi ikkinchi tomon tarafidan bajarilmagan taqdirda, ushbu tomon shartnomani bir tomonlama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

5.5. Tomonlar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

## 6. Boshqa shartlar

6.1. Ushbu Shartnomani imzolash orqali Omonatchi Bank tomonidan o'z faoliyatini amalga oshirish, Shartnoma shartlarini bajarish, shuningdek, qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa maqsadlarda Bank tomonidan mijoz to'g'risidagi har qanday shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardan foydalanishga muddatsiz rozilik beradi.

6.2. Ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq nizolar taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish mumkin bo'lmagan holatda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida hal etiladi.

6.3. Bank tomonidan omonatga qabul qilingan pul mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagi "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-1031-sonli Qonuniga muvofiq fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi banklaridagi omonatlarini kafolatlash jamg'armasi tomonidan kafolatlanadi.

6.4. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Omonat shartlariga amal qiladilar.

6.5. Ushbu Shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada – Tomonlarning har biri uchun bittadan nusxada tuzildi. Shartnomaning har bir nusxasi teng yuridik kuchga ega.

6.6. Ushbu Shartnomani imzolash orqali Omonatchi Bankda qabul qilingan jismoniy shaxslarning omonat amaliyotlarini amalga oshirish va mazkur Shartnoma shartlariga rozilik bildiradi.

6.7. Shartnoma Omonatchi tomonidan familiyasi, ismi, sharifini o'z qo'li bilan kiritish orqali imzolanishi kerak.

## 7. Tomonlarning manzili va rekvizitlari

Bank		Omonatchi	
Bank xizmatlari markazi		F.I.Sh.	
Manzil:		Manzil:	
MFO:		Pasport ma'lumotlari:	
INN:			
Bank xizmatlari markazi mas'ul xodimi:		Tel:	
F.I.Sh		Shartnoma shartlari, omonat qoidalari va bank amaldagi tariflari bilan tanishdim.	
		F.I.Sh.	(imzo)